Namangan viloyatida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari


2026- yil yanvar-sentyabr oylari uchun

I. Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma‘lumot
II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari
IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari
V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar

I. Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma‘lumot

2026- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 25,2 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi[1]




[1] *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20- apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma’lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta’minlash maqsadida Soliq qo‘mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxslar haqidagi ma’lumotlar bazalari to‘liq xatlovdan o‘tkazildi va aniqlangan farqlar bir xillashtirildi*

Hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1- oktabr holatiga, birlik	2026- yil 1- oktabr holatiga, birlik
Mingbuloq tumani	1205	1491
Kosonsoy tumani	1204	1431
Namangan tumani	1267	1435
Norin tumani	1163	1350
Pop tumani	1562	1777
To‘raqo‘rg‘on tumani	1342	1530
Uychi tumani	1236	1429
Uchqo‘rg‘on tumani	1284	1561
Chortoq tumani	1378	1668
Chust tumani	1869	2156
Yangiqo‘rg‘on tumani	1236	1540
Namangan sh.	6904	7844

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni




II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida 3320 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026- yilning yanvar- sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tashkil etilgan eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar soni savdo sohasida 1320 ta, sanoat sohasida 467 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida 403 ta hamda 1130 ta boshqa xizmatlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2026- yilning yanvar- sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Namangan shahrida 669 ta, Mingbuloq tumanida 260 ta, Chust tumanida 185 ta, Chortoq tumanida 175 ta Uchqo‘rg‘on tumanida 163 ta, hamda To‘raqo‘rg‘on tumanida 126 ta tashkil etilgan.

Hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2025- yil yanvar-sentabr oylarida, birlik	2026-yil yanvar- sentabr oylarida, birlik
Mingbuloq tumani	258	329
Kosonsoy tumani	219	144
Namangan tumani	141	151
Norin tumani	207	176
Pop tumani	204	202
To‘raqo‘rg‘on tumani	161	202
Uychi tumani	171	176
Uchqo‘rg‘on tumani	240	227
Chortoq tumani	213	250
Chust tumani	212	269
Yangiqo‘rg‘on tumani	189	221
Namangan sh.	923	973

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi

2026- yilning yanvar- sentabrda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 75,5 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o’zgarmagan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarish faoliyati

2026- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 24 120,1 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 59,8 % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2025- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 112,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Norin tumani (100,0 %), Yangiqo‘rg‘on tumani (100,0 %), Pop tumani (96,3 %) va Namangan tumani (82,5 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026- yil yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 14 611,6 mlrd so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 89,2 % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2025- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 115,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Kosonsoy tumani (99,6 %) Yangiqo‘rg‘on tumani (99,1 %), To‘raqo‘rg‘on tumani (98,5 %), Norin tumani (96,9 %), Namangan tumani (95,2 %) va hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026- yil yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 52 899,2 mlrd so‘mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 88,2 % ni tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2025- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 122,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Kosonsoy tumani (97,6 %), Yangiqo‘rg‘on (96,2 %), Namangan shahar (95,1 %), Uchqo‘rg‘on tumani (93,6 %) va tumanlariga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi faoliyati

2026- yil yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligidagi hajmi 30 767,6 mlrd so‘mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 96,2 % ni tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2025- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 106,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulush Yangiqo‘rg‘on (98,2 %) Chortoq (97,9 %), Chust (97,5 %), Namangan shahar (97,4 %), tumanlariga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 25 183,3 mlrd so‘mni yoki umumiy hajmining 93,1 % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2025- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 112,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko‘p ulushi Namangan shahar (78,2 %), Uychi t (76,2 %) Chust t (74,7 %) Uchqo‘rg‘on t (74,4 %) Namangan t (72,9 %), tumanlariga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Yillar

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning ximatlar sohasidagi hajmi 23 205,5 mlrd so‘mni yoki umumiy hajmining 74,4 % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2025- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 112,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko‘p ulushi Yangiqo‘rg‘on t (81,9 %), Kosonsoy t (78,8 %) Namangan t (77,7 %), Uychqo’rg’on t (77,4 %) Norin t (77,1 %), tumanlariga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Yillar

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar- sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 268,5 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 46,2 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar- sentabrda hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Norin, Yangiqo‘rg‘on, tumanlarida – 100,0 % Norin tumanida – 100,0 %, Namangan tumanida – 98,4 % va Namangan shahrida – 68,6 %, ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar- sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 562,4 million AQSH dollarini yoki jami importning 74,7 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar- sentabrda hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Pop tumanida – 94,4 %, Norin tumanida – 94,3 %, Yangiqo‘rg‘on tumanida – 93,8 %, Uychi tumanida – 92,8 %, Mingbuloq tumanida – 91,8 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 92,2 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 111,3 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,4 % ni tashkil etgan bo‘lib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 108,5 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,3 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 105,2,% ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-sentabrda avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,1 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 105,6 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo‘yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlanma kuzatuv ma’lumotlariga ko‘ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini 2026- yilning yanvar- sentabrda **a’lo** deb baholagan korxonalar ulushi 9,8 %, **yaxshi** deb baholagan korxonalar ulushi 59,5 %, **o’rtacha** deb baholagan korxonalar ulushi 28,1 %, **yomon** deb baholagan korxonalar ulushi 2,6 % ni tashkil qilgan.

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo‘yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlanma kuzatuv ma’lumotlariga ko‘ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini O’tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o’zgarishlar **yaxshilanish** deb baholagan korxonalar ulushi 34,0 %, **o’zgarishsiz** deb baholagan korxonalar ulushi 62,5 %, **yomonlashish** deb baholagan korxonalar ulushi 3,5 %, ni tashkil qilgan.

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo‘yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlanma kuzatuv ma’lumotlariga ko‘ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini Keyingi chorak uchun o‘zgarishlar istiqboli o’zgarishlar **yaxshilanish** deb baholagan korxonalar ulushi 41,7 %, o’zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 56,6 %, yomonlashish deb baholagan korxonalar ulushi 1,7 %, ni tashkil qilgan.

Umum iqtisodiy vaziyatining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida baholanishi

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlanma kuzatuv ma’lumotlariga ko‘ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini Joriy davrda **a’lo** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Tashish va saqlash ulushi 14,3 %, Qurulishda ulushi 11,9 %, Yashash va ovqatlanish buyicha xizmatlar ulushi 11,8 %, Sanoat ulushi 10,5 %, Savdo ulushi 10,1 %, ni tashkil qilgan.

Joriy davrda **yaxshi** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi ulushi 71,7 %, Axborot va aloqa ulushi 66,7 %, Tashish va saqlash ulushi 61,9 %, Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish ulushi 61,5 %, Qurilish ulushi 60,4 %, ni tashkil qilgan.

Joriy davrda **o’rtacha** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Sanoatda ulushi 34,5 %, Axborot va aloqa ulushi 33,3 % Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish ulushi 30,8 %, Yashash va ovqatlanish buyicha xizmatlar ulushi 29,4 %, ni tashkil qilgan.

Joriy davrda **yomon** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi ulushi 3,8 %, Savdo ulushi 3,4 %, Sanoat ulushi 2,9 %, Yashash va ovqatlanish buyicha xizmatlar ulushi 2,9 %, ni tashkil qilgan.

Umum iqtisodiy vaziyatining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida baholanishi

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlanma kuzatuv ma’lumotlariga ko‘ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar **yaxshilanish** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish ulushi 61,5 %, Tashish va saqlash ulushi 38,9 % Savdo ulushi 35,3 % Snoat ulushi 35,2 %, Qurilish ulushi 35,1 %,Yashash va ovqatlanish buyicha xizmatlar ulushi 30,8 %, ni tashkil qilgan.

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar **o’zgarishsiz** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi ulushi 78,1 %, Yashash va ovqatlanish buyicha xizmatlar ulushi 69,2 %, Qurilish ulushi 62,8 %, Tashish va saqlash ulushi 61,1 % Savdo ulushi 59,7 %, Sanoatda ulushi 57,2 %, ni tashkil qilgan.

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar **yomonlashish** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Sanoatda ulushi 7,6 %,Savdo ulushi 5,0 %, Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi ulushi 2,4 %, Qurilish ulushi 2,1 %, ni tashkil qilgan.

Umum iqtisodiy vaziyatining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida baholanishi

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlanma kuzatuv ma’lumotlariga ko‘ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini Keyingi chorak uchun o‘zgarishlar istiqboli joriy davrdagi o‘zgarishlar **yaxshilanish** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Xizmatlar ulushi 44,8 %, Savdo ulushi 44,3 %, Qurilish ulushi 41,6 %, Sanoatda ulushi 40,4 %,Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi ulushi 35,8 %, ni tashkil qilgan.

Keyingi chorak uchun o‘zgarishlar istiqboli joriy davrdagi o‘zgarishlar **o’zgarishsiz** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi ulushi 64,2 %, Qurilish ulushi 57,4 %,Sanoatda ulushi 56,1 %, Xizmatlar ulushi 55,2 %, Savdo ulushi 52,8 %, ni tashkil qilgan.

Keyingi chorak uchun o‘zgarishlar istiqboli joriy davrdagi o‘zgarishlar **yomonlashish** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Sanoatda ulushi 3,5 %, Savdoda ulushi 2,9 %, Qurilish ulushi 1,0 %, ni tashkil qilgan.

VI.Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o‘z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo‘lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas’ul:	**Ijrochi:**	**Manzil:**
Tadbirkorlik subyektlari kuzatuvlari bo‘limi	A. Javharov 69 211-72-00 (5030)	160133, Namangan sh, N.Namangoniy ko'chasi, 14-uy.